

## EKOLOGIYA BUZILISHINING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI

**Habibova Halima Hayitovna**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Mamleketlik Universiteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Maqolada ekologiya, tabiat tushunchasi, u buzilishining inson salomatligiga va atrof-muhitga ko'rsatadigan ta'siri, bugungi kundagi statistik ko'rsatkichlar, olib borilayotgan ishlar, choralar xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Ekologiya, tabiat, kasalliklar, xavf, choralar.

### KIRISH

Tabiat insonlarning barcha talablarini qondiruvchi manbadir. Tabiat – bu butun moddiy borliqdir. Tabiat va jamiyat bir-biri bilan chambarchas bog'langan yaxlit borliqning ikki bo'lagini tashkil etadi. Inson va atrof-muhitning umumiy belgilari bilan bir qatorda o'ziga xos tomonlari ham bor. Inson yashashi uchun zarur bo'lgan barcha narsalar – oziq-ovqat, kiyim, qurilish materiallari va boshqalar tabiatdan olinadi. Bunga erishish uchun tabiiy boyliklardan foydalaniladi, albatta bu xomashyolarni qayta ishlash lozim. Buning uchun ulkan sanoat infratuzilmasi yaratilgan. Yuqorida fikr yuritganimizdek, sanoat korxonalari nafaqat mahsulotlar ishlab chiqaradi, balki atrof-muhitga chiqindilar ham tashlaydi, bu esa tabiatga o'zini salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Hozirgi kunga kelib dunyo aholisi soni 8 mlrdga yetib bormoqda, albatta bu tabiiy resurslardan ko'proq foydalanishga olib kelmoqda. Natijada atrof-muhitga tashlanadigan chiqindilar yildan yilga oshib ketmoqda. Shuning uchun Ona tabiatimizga o'z ta'sirini ko'rsatadigan sanoat chiqindilaridan himoyalash davr talabi bo'lib qolmoqda, chunki ifloslangan tabiiy muhit nafaqat insonlarga, balki tabiatimizga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu borada nafaqat davlatimiz, balki dunyo davlatlari tomonidan bir qancha chora tadbirlar ishlab chiqilgan. Xalqaro miqyosda juda ko'p konvensiyalar BMT tomonidan ishlab chiqilgan va hozirgi kunda amal qilinmoqda.


Sanoat korxonalari chiqindilarini kamaytirish uchun avvalambor hozirgi zamon talabiga mos keladigan ilg'or texnologiyalardan foydalanilgan holda chiqindisiz jarayonlardan foydalanishimiz lozim. Bunda eng asosiy maqsad- bu tabiiy resurslarga tejamkorona munosabat va atrof-muhitga salbiy ta'sirni kamaytirish, qolaversa inson salomatligini tiklash. Respublikamizda hozirgi kunda barpo etiladigan barcha sanoat korxonalari zamon talablariga mos keladigan texnologiyalari bilan jihozlanib o'rnatilmoqda. Buning natijasida respublikamiz ekologik holati yaxshilanishiga olib kelmoqda. Bu dunyo murakkab va sirli tuzilgan, mana shu dunyoda yashash esa

undanda murakkab. Olamdagi har bir tirik jon, tirik organizmlar hayotining tashqi muhit bilan bog‘liqligi qadimdan ma’lum albatta. Antik davrni o‘zidayoq ko‘plab faylasuflar o‘z asarlarida o‘simliklar, hayvonlar va boshqa tirik jonzotlar yashashi, hayot tarzi, tuproq va iqlim sharoitlari bilan bog‘liqligi haqida ma’lumotlar keltirib o‘tganlar. Insonlar tabiat bilan uyg‘un holda yashagani tufayli, tabiatni o‘rganish ularni tabiiy ehtiyojiga aylangan. Bu ehtiyoj tufayli insonlar atrof-muhit, o‘simliklar va hayvonot olami, tabiatda sodir bo‘ladigan hodisa va jarayonlarni sirli tomonlarini o‘rgana boshlagan. Inson ongi, mantiqiy fikr yuritish qobiliyati va tafakkuri rivojlangani sari, tabiatdagi hayotning mohiyatini anglab yetish imkoniyati yuzaga kela boshladi.



“Ekologiya” terminini fanga kiritishga bo‘lgan ilk qadam Nemis olimi Ernest Gekkel tomonidan qo‘yildi. E.Gekkel bu ishni 1866 – yilda bajargan bo‘lib, u bu atama haqida shunday fikrlar aytib o‘tgan: “Ekologiya ayrim individlarning rivojlanishi, ko‘payishi, yashashi, populyatsiyasi va jamolarning tarkibi hamda o‘zgarishlarini yashash muhitiga bog‘liq holda o‘rganadi”. Ekologiya yunoncha “Oikos” – uy, boshpana, “logos”-fan, ta’limot, degan ma’nomlarni anglatadi. Ekologiya biologik tizimlar turiga qarab quyidagi bo‘limlarga ajratiladi: autekologiya (faktorial ekologiya), demekologiya (populyatsiyalar ekologiyasi), sinekologiya (jamoalar ekologiyasi), biogeotsenologiya (ekotizimlar ekologiyasi), global ekologiya (biosfera ekologiyasi), evolyutsion ekologiya va tarixiy ekologiya. Autekologiya atrof-muhit omillarining tirik organizmlarga ta’sirini o‘rgansa, demekologiya populyatsiyalar o‘rtasidagi munosabatlarni, ularning dinamikasi va boshqa xususiyatlarini o‘rganadi. Sinekologiya jamoalar o‘rtasidagi aloqalarni, biogeotsenologiya turlar yig‘indisidan iborat ekotizim munosabatlarini, global ekologiya butun biosferada kechadigan jarayonlar va ularning tirik organizmlarga ta’sir xususiyatlarini, evolyutsion va tarixiy ekologiya esa ularning qadimdan to bugungi kunga qadar rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadi. Avvallari biron bir insondan ekologiya haqida so‘rasangiz u qisqacha “Atrof – muhit bilan bog‘liqlik” deya javob berardi. Bazi insonlar esa mana shu atama haqida esa deyarli ma’lumotga ham ega emas bo‘lib chiqardi.

XX asrning 70-yillariga kelib fikrlar o'zgarib boshladi. Hozirgi kunga kelib kimdan so'ramang birinchi bo'lib hayoliga kelgan narsa bu ekologik muammolardir. Buni sababi insoniyatni tabiatga aralashuvi me'yoridan oshib ketganligidadir. Bu dunyoda har bir bitta narsani me'yorini yaxshi. Bunga amal qilish zarurligi deyarli barchani qiziqtirishi kerak. Hattoki inson uchun zarur bo'lgan kislorodning ham me'yorini yaxshi, chunki u kamayib ketsa atmosferada gazlar miqdori oshib ketishiga olib keladi. Agarda kislorod miqdori oshib ketsa, yer sirtidagi harorat maksimal darajaga ko'tariladi, sodda qilib aytganda, yer mikroto'lqinli pechga aylanadi, odamlar esa uning ichida qovurilayotgan bodrog'larga. Bu esa yakun odamzod uchun intiho. Bu bir misol bunday misollardan ko'plab keltirish mumkin. Ekologiya muammosi hozirgi kunda global muammoga aylanib ulgurganligiga ko'p bo'ldi. Global isish, Antarktida muzlarini erishi, buning oqibatida suv toshqinlarini ko'payishi, ozon qatlamini yemirilishi, ko'plab yong'inlar, ichimlik suv zaxirasini tugab borishi v-h., bu shunchaki uchdan biri holos. Bu muammolar insoniyatga tobora ko'proq xavf sola boshladi. Buning yechimlarini esa hali hamon kutmoqdamiz. Biz bunga shunchaki ko'z yuma olmaymiz. Albatta ko'plab olimlar bu muammolarni hal etishga urinmoqda, ba'zilarini deyarli hal etishga ham erishishdi. Ammo bu yetarli emas. bu shunchaki muammoni vaqtinchalik muzlatib qo'yishdek gap. Hammasini o'z holiga qaytarish uchun insoniyat o'z taraqqiyotidan voz kechishi kerak. Bir qarashda bu ilojisizdek ko'rinadi, biroq hammasini o'z holiga qaytarishning iloji bor va buni qilsa bo'ladi. Tabiatni asrash har birimizni burchimizdir. Insonlarni lol qoldiradigan uni qalbini tub-tubidan o'rin egallagan go'zallik ham tabiat mo'jizasidir. Odamlarni chinakamiga hayratga sola oladigan va tuyg'ularini jo'shqinlantiradigan mana shu tuyg'ularni kuchaytiradigan ham tabiatdir. Insoniyat tabiat oldida ojizligini barcha anglab yetgan bo'lsa kerak. Garchi vaqt kutib turmasa-da hammasini tog'rilash uchun insoniyat ixtiyorida yetarlicha vaqt bor deb hisoblayman.



Inson hech qachon tabiatsiz yashay olmaydi, chunki u tabiatning ajralmas qismi hisoblanadi. Biz yashab turgan va bizni o'rab turgan olam xuddi onamiz kabi mehribon va jonkuyar. Quyoshning har zarrasida, tuproqning har jismida tabiatning bizga

bo'lgan onadek mehribon taftini his qilamiz. O'zining har bir jabhasida inson uchun zarur bo'lgan minglab unsurlarni mujassam etgan. Ming afsuski inson tabiatga misli ko'rilmagan miqdorda tasir ko'rsatadi. Inson aql-zakovati orqali, mehnat faoliyati tufayli ta'sir qilishini hech bir narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi. Aniqroq aytadigan bo'lsak, mavjudotlar tabiatdan qanday bo'lsa, shunday foydalanib, unga sezilarsiz tasirini o'tkazadi. Insoniyat uni o'rab turgan barcha shart-sharoitlarga moslasha oladi, moslasha olmas, uni o'zi istaklariga moslashtiradi, tabiatni insoniylashtiradi, natijada tabiat muvozanati buziladi, buzilgan muvozanat esa katta talofatlarga olib keladi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Tirik mavjudotlarni o'rab turgan ekologik muhit, asosan, insoniyat tomonidan salbiy tomonga o'zgartirib yuborildi, buning asosiy sababi zavod-fabrikalar, transportlar va ulardan chiqayotgan chiqindilar. Bu o'zgarishlar atrof-muhitni shu darajada o'zgartirdiki, barcha tirik mavjudotlar qatori inson salomatligiga ham o'z tasirini o'tkazdi. XXI asr insoniyat faoliyatining har bir sohasida, ayniqsa, tibbiyotda buyuk kashfiyotlar qilib, milliardlab mablag'lar sarflanishiga qaramay, insonlar organizmiga kasalliklar xavf solishi va hayotda bevaqt ko'z yumishlar ko'p uchraydi. Odatda, qabul qilinadigan qarorlar atrof muhitga salbiy ta'sirlarni kamaytirish, tabiiy muhitni himoya qilishdan ko'ra, inson salomatligini himoya qilish uchun ko'proq ahamiyatga ega. Ushbu ta'sirlarning asosiy oqibatlari umuman sayyoramizning ifloslanishidir. Biz suv, tuproq, havoning ifloslanishini, ekotizimlarning yo'q qilinishini, yashash joylarining parchalanishini va boshqalarni ko'rishimiz mumkin. Bularning barchasi kasalliklarning ko'payishiga, biologik xilma-xillikning yo'qolishiga va o'simlik va hayvonot dunyosida ham, odamlarda ham sog'liq muammolariga olib keladi. Buyuk mutafakir bobomiz Abu Ali Ibn Sinoning hozirda ekologiya deb yuritilayotgan atrof-muhitning deyarli barcha omillari, ularga insonning, jonzotlarning ta'siri va nihoyat, bu omillarning inson va jonzotlarga aks ta'siri to'g'risidagi mashhur iboralarning keltirishning o'zi kifoya. "Chang bo'lmaganda inson 1000 yil yashagan bo'lar edi". Jahon statistik ma'lumotlarga ko'ra, aholining 10% qarilikdan, 20% baxtsiz hodisalar va janglardan, 70% esa kasalliklardan o'lmoqda. Shuningdek, bizning sog'lig'imizning atigi 10%i tibbiyotga, qolgan 90% esa o'zimizga va atrof-muhit hodisalarga bog'liq.


### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Hozirgi kunga kelib ekologik muammolar inson salomatligiga jiddiy tahdid tug'dirmoqda. Global gumanitar forum ma'lumotiga ko'ra, sayyoramizda ro'y berayotgan iqlim o'zgarishi yiliga uch yuz ming insonning umriga zomin bo'lmoqda. Uch yuz million aholi uning salbiy ta'siri ostida hayot kechirmoqda. Bundan iqtisodiyotga ham jiddiy zarar yetmoqda. Bunday global muammolar Markaziy Osiyo mintaqasi taraqqiyotiga ham o'z salbiy ta'sirini o'tkazmoqda. Orol bo'yidagi noxush



ekologik vaziyat, Tojikiston alyuminiy zavodidan chiqayotgan zaharli gaz va chiqindilarning Surxandaryo viloyati Sariosiyo, Denov va boshqa tumanlarida istiqomat qiluvchi aholi salomatligiga salbiy ta'siri, buning ta'sirida kelib chiqayotgan tabiiy tangliklar, cho'llanish, sho'rlashish, chuchuk suv muammosi bunga misoldir. Bundan tashqari aholi orasida ko'p uchraydigan allergik (nafas yo'li kasalliklari) kasalliklarni ham misol qilib olishimiz mumkin. Ko'plab epidemiologik kuzatuvlar atrof-muhitning kimyoviy ifloslanishi va aholining reproduktiv funksiyasining buzilishi o'rtasidagi bevosita sabab-oqibat bog'liqligini ko'rsatadi. Bu mehnat sharoitida ham - metallurgiya zavodlari ishchilarida, to'qimachilik sanoati, gaz va neftni qayta ishlash korxonalarida, laborantlar va jarroh ayollarda ham, atmosferasi, suv manbalari va tuprog'i bilan ifloslangan aholi punktlarida ham aniqlandi. Hozirgi kunda yurtimizda sanitariya-epidemiologiya muhitini barqarorlashtirish, tabiatga salbiy ta'sirlarni kamaytirish, ekologiya va gigiyena tadbirlarini uzviy ravishda tashkil etish tizimi shakllangani inson salomatligini asrash va yuqumli kasalliklar bo'yicha barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilmoqda. Yangi ekologik sharoitlarning mavjudligi inson organizmida millonlab moslanish jaroyonlarni keltirib chiqarmoqda, demak inson organizmi har qanday tabiiy sharoitda o'zini tiklash sog'aytirishi va moslashish qobiliyatiga ega. Bizning vazifamiz esa o'zini o'zi sozlovchi va tiklovchi biosistemaga turli kasalliklardan o'zini himoya qilish uchun shart-sharoit yaratib berishdir. Aholi salomatligini mustahkamlash va kasalliklarning oldini olishda sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish, ba'zi ekologik vaziyat o'ta tang ahvolda bo'lgan hududlarda tabiiy nazoratni yanada kuchaytirishimiz zarur. Hozirgi vaqtda turli zavod va fabrikalarda 45 ming turga yaqin kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda va aholiga sotilmoqda, jahon bo'yicha 300 mln. tonnaga yaqin organik moddalar ishlab chiqarilib, ular yordamida milliondan ortiq buyumlar tayyorlanmoqda. Lekin ishlab chiqarishda foydalanilayotgan ushbu kimyoviy moddalar ma'lum miqdorda havo, suv va oziq-ovqatlar orqali inson tanasiga ham kelib tushmoqdaki, buning natijasida turli xil yuqumli kasalliklar yuzaga kelmoqda. Chunki ayrim kimyoviy moddalar zaharlilik xususiyatiga ega bo'lsa, ayrimlari allergenlik, konserogenlik (rak kasalligini keltirib chiqarish xususiyati), mutagenlik (naslga ta'sir etish xususiyati) va teratogenlik (chala yoki mayib-majruh tug'ilishni yuzaga keltirish xususiyati), fibrogenlik (tanadagi to'qimalar birikmasining ajralishi) xususiyatlariga egadir. Bunday kimyoviy moddalarga, ayniqsa, og'ir metallar (qo'rg'oshin, kadmiy, simob), noorganik gazlar (oltinugurt ikki oksidi, is gazi, azot oksidi, ozon), kremniy ikki oksidi (DDT, xlorli vinil va boshqalar) misol bo'lishi mumkin. Ushbu kimyoviy moddalar alohida holda ham, aralashma holda ham inson sog'lig'i uchun juda xavfli hisoblanadi. Keyingi yillarda saraton kasalligining ko'payishi, turli xil kasalliklarning yangi turlarini vujudga kelishi, asosan, kimyoning ta'siridandir. Texnikaviy taraqqiyot davrida

atmosfera havosining ifloslanishi Respublikamizning Olmaliq, Chirchiq, Buxoro, Farg‘ona va Navoiy viloyatlarida, ayniqsa sezilarli darajada ortganligi hech kimga sir emas. Birgina Buxoro viloyati misolida oladigan bo‘lsak, atmosfera havosining yuqori darajada ifloslanganligini kuzatish mumkin. Uch yuz mingga yaqin aholisi bo‘lgan Buxoro shahrida havoni ifloslantiruvchi ko‘plab sanoat korxonalarini mavjud. Ishlab chiqarishning texnologik jarayonlarida har yili 637,6 ming tonna zararli moddalar hosil bo‘lib, shundan 97,2% i ushlab qolinadi. Sanoat korxonalarini bilan birga shaharda avtotransport vositalarining ko‘payishi va issiqxona effekti samarasining yuqoriligi ham shahar havosiga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.



## XULOSA

Jahon Sog‘liqni saqlash tashkilotining ma‘lumotlariga ko‘ra, iqlimning isishi inson sog‘lig‘i uchun chekish, alkogol iste‘mol qilish, noto‘g‘ri ovqatlanish kabi juda katta xavf tug‘diradi. Bugungi kunda jazirama issiqlar, ayniqsa, shaharlarda xavflidir. “Jazirama orollar” effekti ham ma‘lum bo‘lib, ular, qoida bo‘yicha balan ma‘muriy binolar, asfaltlangan maydonlar, ko‘p bo‘lgan va aksincha, ochiq yerlar, ko‘kalamzor o‘simliklar va suvli havzalar kam bo‘lgan shahar markazlariga to‘g‘ri keladi. Shunday qilib, jazirama issiqlar nafaqat aholining jismoniy zaif guruhlari (qariyalar, yosh bolalar, kam ta‘minlangan fuqorolar), balki shahar markazlarida joylashgan davlat idoralari, banklar va boshqa muassasalar (agar ular konditsionerlar bilan ta‘minlangan bo‘lsa) xizmatchilari uchun ham birdek xavf-xatar omili sifatida namoyon bo‘ladi. Xulosa qilib aytganda, sanoat korxonalarini chiqindilarini kamaytirish uchun, avvalambor, hozirgi zamon talabiga mos keladigan ilg‘or texnologiyalardan foydalanilgan holda chiqindisiz yoki kamchiqindili texnologiyadan foydalanishni keng yo‘lga qo‘yishimiz lozim. Zero, chiqindilar masalasi ekologiyadagi muhim muammolardan biri bo‘lib, ularni qayta ishlash yoki gigiyenik talablar bo‘yicha ishlov berilsa nafaqat iqtisodiy jihatdan foyda ko‘ramiz, balki yerni, havoni suvni, oziq –

ovqat mahsulotlarining ifloslanishi oldi olinardi, kishilar sog'lig'ini muhofaza qilishda katta ahamiyatga ega bo'ladi va kelajak avlod uchun ham tabiatimizni o'z musaffoligini saqlagan holda yetkazib bergan bo'lamiz.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Biology (textbook for academic lyceums and professional colleges)
2. Zhumaeva, Sh., B. (2022). Эколого-флористический анализ альгофлорыводных объектов бухарской области. Международный междисциплинарный исследовательский журнал Galaxy (431-435ст).
3. Nazarov, A. (2021). Challenges to uzbekistan's secure and stable political development in the context of globalization. Journal on International Social Science, 1(1), 26-31.
4. Nazarov, A. (2021). Healthy Generation-The Basis Of A Healthy Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(11), 409–413
5. Nazarov, A. (2021). The impact of the chemical industry on the environment. Eurasian journal of academic research 1(8), 145-148
6. Nazarov, A. (2018). The globalizing world: the conditions and prerequisites for political development through innovative politics ipiplinary Scientific Journal and preventive democracy. Theoretical & Applied Science, (4), 9-12.
7. Kholliyev, A., Nazarova, F., & Norboyeva, N. (2021). Cotton resistance indicators in the conditions of water deficiency. Збірник наукових праць SCIENTIA.
8. Nazarova, F. (2021). The use of phenological observations in the determination of the main phases of the development of thin-fiber goose varieties in the conditions of bukhara region. Theoretical & applied SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (9), 523-526.
9. Аминжонова, Ч. А., & Мавлянова, Д. А. (2020). Методика преподавания предмета “биология” в системе высшего медицинского образования. In методологические и организационные подходы в психологии и педагогике (pp. 8- 11).